XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-yanvar VII-4-9-6-82-K/25 Namangan tumani

Namangan tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 28-fevraldagi Namangan viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-1959-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Namangan tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil “19” avgustdagi № 40 - sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Namangan tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Namangan tumani bilan chegaradosh boʻlgan Namangan shahri, Uychi, Norin, Mingbuloq va To'raqo'rg'on tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi N.Toshpo'latov nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

MO‘MINOV
SADRITDIN
ZOKIROVICH

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-4-9-6-82-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyati Namangan tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Namangan, To‘raqo‘rg‘on tumanlari va Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy, Shimoliy Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°58'3,552", sharqiy uzoqlik koordinatalari 71°34'3,125").*

A dan B gacha Namangan shahri yerlari bilan 1-18-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara chizig‘i Shimoliy Farg‘ona kanalidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 26 metr masofada Namangan-Andijon temir yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng temir yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 357 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'9,264", sharqiy uzoqlik 71°34'15,776").*

2 – nuqtadan chegara chizig‘i Namangan-Andijon temir yo‘lidan ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 805 metr masofada 4K-443 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'56,619", sharqiy uzoqlik 71°34'45,855").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i 4K-443 avtomobil yo‘lidan ariqqa o‘tib ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 715 metr masofada Yangi ariq arig‘ini, dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib ariqqa o‘tadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 104 metr masofani o‘tadi, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 830 metr masofada 4K-441 yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'34,144", sharqiy uzoqlik 71°35'43,668").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i 4K-441 yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1518 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 842 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 304 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib 4R-112 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'14,318", sharqiy uzoqlik 71°37'15,869").*

5 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-112 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2539 metr masofani o‘tib, 4R-115 avtomobil yo‘llarini xalqa yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'56,932", sharqiy uzoqlik 71°39'0,932").*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-115 avtomobil yo‘llari xalqasini kesib o‘tib, 4R-112 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2978 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘li kesihmasida bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'51,833", sharqiy uzoqlik 71°41'6,794").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-112 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1059 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1271 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 195 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'17,112", sharqiy uzoqlik 71°42'34,644").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tadi, keyin yo‘lni kesib yo‘lni janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 55 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi, so‘ngra devor bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 33 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 69 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 282 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'14,831", sharqiy uzoqlik 71°42'48,182").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 84 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 24 metr masofani o‘tadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 204 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 219 metr masofani o‘tib tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 32 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 133 metr masofada ariqni kesib o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'16,305", sharqiy uzoqlik 71°43'13,120").*

10 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 18 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 160 metr , so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 120 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 21 metr masofada qishloq ichki yo‘lini, kanalni kesib o‘tadi, keyin kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 108 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 57 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 264 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 11 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 691 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'49,975", sharqiy uzoqlik 71°43'56,070").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 617 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 175 metr masofani o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 12 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib

yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'56,682", sharqiy uzoqlik 71°44'25,088").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 20 metr masofada 4R-112 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib Namangansoy soyiga o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2036 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'53,350", sharqiy uzoqlik 71°43'28,616").*

13 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 49 metr masofada Namangansoy soyini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 210 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 230 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 387 metr o‘tib, so‘ngra yo‘ldan tomorqa devorga o‘tib, devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 156 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali yo‘nalishni o‘zgartimagan holda 16 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib zovur bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'11,421", sharqiy uzoqlik 71°43'49,635").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 377 metr masofanani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi, va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 144 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 133 metr masofani o‘tib ariqqa o‘tadi, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 58 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda 203 metr masofani o‘tib, ariq quyilishida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'34,060", sharqiy uzoqlik 71°43'39,130").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 315 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 113 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'46,192", sharqiy uzoqlik 71°43'43,548").*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan dala tuproq yo‘liga o‘tib, yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 393 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'40,184", sharqiy uzoqlik 71°43'58,259").*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib yo‘lga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 118 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 106 metr masofani o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 7 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 146 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 227 metr masofani o‘tib, Namangan, Uychi tumanlari va Namangan shahri chegara chiziqlari kesishgan joy zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'50,245", sharqiy uzoqlik 71°44'23,667").*

B dan D gacha Uychi tumani yerlari bilan 18-38-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

18 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 357 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ng zovurning chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 115 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'49,390", sharqiy uzoqlik 71°44'43,174").*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisoga olgan holda 220 metr masofada zovurni kesib o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 44 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 477 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'28,637", sharqiy uzoqlik 71°44'30,755").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan chekga tutashadi va chek bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 283 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 299 metr masofada baliq hovuziga tutashadi, so‘ng baliq hovuz bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 185 metr masofada zovurga tutashadi, so‘ngra yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 470 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°59'4,034", sharqiy uzoqlik 71°44'43,741").*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan ariqqa o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 124 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 337 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi keyin ariqning suv oqimi chap tomoni bilan bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 278 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 166 metr masofani o‘tib ariq burilishida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'51,589", sharqiy uzoqlik 71°45'12,048").*

22 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 301 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 290 metr masofani o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 25 metr masofada ariqni kesib o‘tadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 340 metr masofani o‘tib ariq burilishida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'53,902", sharqiy uzoqlik 71°45'49,121").*

23 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 478 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 364 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 191 metr masofani o‘tib, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 440 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'26,568", sharqiy uzoqlik 71°46'25,293").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 391 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 366 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 256 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'52,636", sharqiy uzoqlik 71°46'40,428").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 711 metr masofada ariqni kesib o‘tib, ariq burilishida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'42,244", sharqiy uzoqlik 71°47'5,476").*

26 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 491 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 96 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'26,241", sharqiy uzoqlik 71°47'13,129").*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 119 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib Chortoqsoy soyiga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 285 metr metr masofada soyni kesib o‘tadi, so‘ng soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 17 metr masofada zovurni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'14,011", sharqiy uzoqlik 71°47'14,985").*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1439 metr masofada 4R-112 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 466 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'51,090", sharqiy uzoqlik 71°46'8,505").*

29 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-112 avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tib zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1593 metr masofani o‘tadi, keyin zovurni kesib o‘tib ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 85 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 675 metr masofani o‘tib, Namangansoy kanali bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'6,164", sharqiy uzoqlik 71°44'59,265").*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i Namangasoy kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 901 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'37,224", sharqiy uzoqlik 71°45'1,823").*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i Namangasoy kanalidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 192 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi so‘ng zovurning oqimi va tomoni o‘zgarmagan holda umumiy sharqiy yo‘nalishda 469 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 228 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 386 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'21,786", sharqiy uzoqlik 71°45'47,404").*

32 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 180 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 239 metr masofada zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 235

metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'16,024", sharqiy uzoqlik 71°45'59,270").*

33 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan qishloq ichki yo‘liga o‘tib, yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 135 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 139 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 550 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'58,489", sharqiy uzoqlik 71°46'10,280").*

34 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib ariqqa o‘tadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 250 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib ariqqa o‘tadi, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 221 metr masofani o‘tib ariq burilishida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'54,522", sharqiy uzoqlik 71°45'51,664").*

35 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 26 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 65 metr masofada zovurga tutashadi, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 139 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'51,464", sharqiy uzoqlik 71°45'43,129").*

36 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 56 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 707 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 108 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 144 metr masofada Norin daryosini kesib o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'21,747", sharqiy uzoqlik 71°45'55,974").*

37 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Norin daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 581 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda 600 metr masofani o‘tib, Uychi, Norin va Namangan tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'11,957", sharqiy uzoqlik 71°46'41,657").*

D dan E gacha Norin tumani yerlari bilan 38-40-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

38 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 196 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 255 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 43 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy janubiy yo‘nalishda 655 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'38,863", sharqiy uzoqlik 71°46'36,051").*

39 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan Norin daryosida tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3784 metr masofani o‘tib, Norin va Qoradaryo daryolarining quyilishida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54'4,256", sharqiy uzoqlik 71°45'30,107").*

E dan F gacha Andijon viloyati yerlari bilan 40-42-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

40-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 94 metr masofada Qoradaryo daryosini kesib o‘tib, Sirdaryo daryosi bilan tutashadi, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 444 metr, keyin umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1104 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 636 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 1126 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 843 metr masofani o‘tib, daryo burilishida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'15,569", sharqiy uzunlik 71°43'30,575").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 856 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 515 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1080 metr, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1871 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1128 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1548 metr, so‘ngra umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 950 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 66 metr masofani o‘tib, Namangan, Mingbuloq tumanlari hamda Andijon viloyati chegara chiziqlari kesishgan joy, Oxunboboyev kanali bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'9,597", sharqiy uzunlik 71°39'29,434").*

F dan G gacha Mingbuloq tumani yerlari bilan 42-48-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

42 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1361 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'14,454", sharqiy uzoqlik 71°38'30,855").*

43 – nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo daryosidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 167 metr masofani o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 495 metr masofani o‘tadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 830 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lni kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 538 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 80 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 201 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 540 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 595 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'33,111", sharqiy uzoqlik 71°36'44,970").*

44 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 156 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 66 metr, so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1039 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 382 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy yo‘nalishda 54

metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali yo‘nalishmi o‘zgartirmagan holda 61 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 109 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'11,851", sharqiy uzoqlik 71°35'58,988").*

45 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tadi, keyin dala tuproq yo‘lidan ariqqa o‘tib shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 151 metr masofani o‘tadi, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 134 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 266 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 184 metr masofada ariqqa o‘tadi, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 402 metr masofani o‘tib ariq bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'22,010", sharqiy uzoqlik 71°35'31,923").*

46 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 197 metr masofada ariqni kesib o‘tib, ariqqa o‘tadi keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 549 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 330 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 840 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 537 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 150 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'0,405", sharqiy uzoqlik 71°33'59,813").*

47 – nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 65 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 342 metr masofada Sirdaryo daryosi qirg‘og‘iga o‘tadi, so‘ng daryoning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 896 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 419 metr masofani o‘tib, Namangan, Mingbuloq va To‘raqo‘rg‘on tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'19,748", sharqiy uzoqlik 71°32'55,148").*

G dan A gacha To‘raqo‘rg‘ontumani yerlari bilan 48-1-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

48– nuqtadan chegara chizig‘i Sirdaryo darsosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda 340 metr masofani o‘tib, Sirdaryo daryosi qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'19,825", sharqiy uzoqlik 71°32'40,731").*

49 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 326 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 333 metr masofada Kosonsoy soyiga o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 24

metr masofada soyni kesib o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°52'34,244", sharqiy uzoqlik 71°32'19,036").*

50 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 519 metr masofada ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 146 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 84 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 519 metr masofani o‘tib, Kosonsoy soyi bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53'7,077", sharqiy uzoqlik 71°32'36,034").*

51 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 143 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 769 metr masofada 4R-115 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'31,631", sharqiy uzoqlik 71°32'15,414").*

52 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-115 avtomobil yo‘li ko‘prigidan Kosonsoy soyiga o‘tadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1431 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54'14,985", sharqiy uzoqlik 71°32'14,120").*

53 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1740 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'5,605", sharqiy uzoqlik 71°31'50,089").*

54 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 996 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'37,032", sharqiy uzoqlik 71°31'52,225").*

55 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Kosonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 898 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 954 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'27,363", sharqiy uzoqlik 71°31'11,351").*

56 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 85 metr masofada Kosonsoy soyini kesib o‘tadi, keyin Namangan-Pop temir yo‘lini kesib o‘tib Shimoliy Farg‘ona kanaliga o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 549 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1675 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°56'53,196", sharqiy uzoqlik 71°32'38,039").*

57 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy Farg‘ona kanalidan qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 281 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1309 metr masofada ariqni kesib o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 49 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'29,678", sharqiy uzoqlik 71°33'15,482").*

58 – nuqtadan chegara chizig‘i Namangan-Pop temir yo‘lni kesib o‘tib, ariqqa o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1310 metr masofani o‘tib, keyin ariqning o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 196 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 159 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'12,887", sharqiy uzoqlik 71°32'41,595").*

59 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 151 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 838 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'20,543", sharqiy uzoqlik 71°33'19,529").*


60 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1086 metr masofani o‘tib, Shimoli Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°57'59,185", sharqiy uzoqlik 71°33'56,017").*

61 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Shimoliy Farg‘ona kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 227 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 30 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°58'3,552", sharqiy uzoqlik 71°34'3,125").*

Xalq deputatlari Namangan tumani
Kengashining
2025-yil 21-yanvardagi
VII-4-9-6-82-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Namangan viloyati Namangan tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik CHIZMASI

Xalq deputatlari Namangan tumani Kengashining 2024-yil __ _____ dagi ____-sonli qaroriga 2-ilova



Shartli belgilar

Namangan tumanining chegarasi va yer maydoni

Namangan tumanining chegarasining burilish nuqtasi va raqami